

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA ENGIL SANOAT INSTITUTI

**“O'zbekistonda madaniy-ma'naviy tiklash sohasida amalga
oshirilayotgan islohotlar” mavzusidagi**

РЕФЕРАТ

Бажарди: MASHARIPOVA G.K.

Toshkent- 2015

Mundarija:

Kirish.

1. Mustamlakachilik siyosati va milliy madaniyatga munosabat.
2. Mustaqillikning ma'naviy-axloqiy zaminlari.
3. O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi
4. Davlat tilining ravnaqi.

Xulosa.

Φoydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Dunyoning turli mintaqalari singari Markaziy Osiyo mintaqasi ham o'ziga xos bo'lgan madaniyatga ega. Ushbu mintaqada istiqomat qilib kelgan ajdodlarimiz tomonidan yaratib kelingan milliy madaniyatimiz jahon madaniyatining tarkibiy qismlaridan xisoblanadi. Ajdodlarimiz tomonidan boyitib kelingan milliy madaniyatimiz har doim ham bir tekis rivojlanib kelmadi. Markaziy Osiyoga na'fsi baland bo'lgan yovuz dushmanlarning ko'plab bosqinchilik urushlari xalqimizning moddiy va madaniy hayotiga katta zarar keltirgan.

Bosib olingan joylar xalqlarining madaniy-ma'naviy taraqqiyotini bo'g'ib qo'yish, madaniy-ma'naviy merosni yo'qotish, xalqlarni madaniy hayotdan uzoqlashtirib, ularni ma'naviy qashshoqlashtirish istilo etilgan xalqlarni asoratda ushlab turish yo'llaridan biri ekanligini tarixning o'zi isbotlab bergan.

Haqiqatan ham, "Mintaqamizda yashab o'tgan ulug' allomalar, muta'akkir zotlarning qoldirgan bebaho merosida ham o'zining yorqin ifodasini topgan. Misol uchun, Alisher Navoiy bobomiz bo'ladimi, Rudakiy, Abay, Mahtumquli yoki To'qtag'ul kabi ulug' zotlar bo'ladimi, ularning barchasi o'z ijodi bilan na'faqat ikki daryo oralig'idagi xalqlarni, balki butun bashariyat farzandlarini doimo mehr-oqibatli, do'st-birodar bo'lib yashashga da'vat etgani bejiz emas, albatta...

Insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buxrok boyligi bo'lmish milliy qadriyatlarini, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi"¹.

O'zbek tilini astoydil muho'faza qilish, unga davlat tili maqomini berish, bu tilni aslidagiday qilib tiklash va tobora rivojlantirish, uni jahondagi etuk millatlar tillari darajasiga ko'tarish zaruriyati tug'ilib, etilib qolgan edi. Til davlat himoyasiga olinmasa, rivojlana olmaydi. Til hokimiyat bilan tirik. Agar til davlat himoyasida bo'lsa, u chinakamiga ravnaq topadi, shu tilda gaplashuvchi xalqning madaniyati va adabiyoti ham tez rivojlanadi.

Aslida-ku o'zbek tiliga davlat maqomi berilishi kerakmi-yo'qmi, deb tortishib, munozara qilib o'tirishning hojati yo'q edi. O'zbekistonda o'zbek tiliga davlat maqomi berilishi tabiiy, qonuniy bir jarayondir. Tabiiyligi shundaki, har bir respublikada ish yuritilishi uning hududida yashovchi, shu respublikaga o'z nomini bergan asosiy xalq tili bilan nomlanishi lozim. Modomiki, til - millatni millat qiluvchi asosiy belgilardan biri, millatni birlashtiruvchi kuch, milliy taraqqiyotning ko'zgusi, avlodlarning avlodlarga qoldirgan oltin kaliti ekan, demak, o'zbek tiliga davlat maqomi berilishiga qandaydir favqulodda hodisa deb qaramaslik kerak.

SHu narsani ochiq-oydin aytishimiz kerakki, o'zbek tiliga davlat maqomi berilishi oppa-oson, sip-silliq bo'lmadi.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 9-11-б.

Ushbu Mustaqil ishining dolzarbligi ham mustaqillik va davlat tili ravnaqining bugungi kunda rivojlanishini o'rganish eng dolzarb muammolardan biridir.

Mustaqil ishini o'rganishning asosiy maqsadi - Mustaqillik yillarida davlat tili ravnaqini rivojini hamda sovet mustamlaka davrida tilga bo'lgan e'tiborning pasayishi, shuningdek O'zbek tilini o'rganishning o'ziga xos jihatlarini yoritishdan iborat.

Mustaqil ishini o'rganishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Mustamlakachilik siyosati va milliy madaniyatga munosabatni o'rganish;
- Mustaqillikning ma'naviy-axloqiy zaminlarini yoritish;
- O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishini tahlil qilish;
- Davlat tilining ravnaqini ilmiy jihatdan izohlashdan iborat.

1. Mustamlakachilik siyosati va milliy madaniyatga munosabat

Madaniyat har bir millat va xalq uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, u moddiy va ma'naviy madaniyatdan tashkil topgan. Jamiyat taraqqiyotini, insonning ma'naviy kamolotini madaniyatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Har bir millatga xos bo'lgan milliy madaniyat asrlar mobaynida shakllanib keldi va jamiyat hayotining tarkibiy qismiga aylandi.

Milliy va jamiyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatuvchi madaniyat o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi, u har bir avlod tomonidan boyitib kelinadi va keyingi avlodga meros qilib qoldiriladi. Madaniyatli xalq borliqdagi voqelikni to'g'ri tushuna olganligi uchun ham bosqinchi davlatlar bosib olingan joylar aholisi madaniyatini yo'qotishga harakat qilganlar.

Istilochi mamlakat itoat qildirilgan xalqlarni bora-bora o'ziga singdirib roborishni, buning uchun o'z g'oya va mafkuralarini ularga majburan joriy etishni, madaniyatiga shikast etkazishni, milliy tili, milliy urf-odatlarini va milliy qadriyatlarini rivojiga yo'l bermaslikni o'z siyosatining asosiy maqsadi qilib qo'ygan.

Istilochilar har doim erli xalqlarning madaniyatini, ma'naviyatini barbod etish, milliy til va urf-odatlar kamolotiga yo'l bermaslik, itoat ettirilgan xalqlarni jilovda ushlab turish, boyliklarini istagancha talon-taroj qilish, ularning barcha kuch va imkoniyatlaridan bekamu ko'st foydalanishning eng zarur va nozik yo'llaridan biri ekanligini juda yaxshi bilishgan. SHuning uchun ham mustamlakachilar bu narsani har doim oldindan rejalashtirib kelganlar.

Madaniyatni yo'qotishga qaratilgan harakat kuchayib boraversa, tobe xalq o'z milliy madaniyatidan qanchalik uzoqlashsa, xalq manaviy jihatdan qashshoqlashib borsa, odamlarda milliylikka intilish asta-sekin yo'qolib, ular o'z-o'zidan e'tiqodsiz bo'lib boraveradi.

Milliy-madaniyat, ma'naviyatning yo'qolib borishi jamiyat a'zolarida siyosiy manqurtlik, beparvolikni kuchaytirib, ularni ijtimoiy faollikdan uzoqlashib boradi. Bosqinchilar bosib olingan joylar aholisini mustamlakachilik kishanlarida uzoq vaqt ushlab turishni, ularning o'z haq-huquqlarini talab etmaydigan, itoatkor kishilarga aylantirishga intilganlar.

Tariximizga nazar tashlar ekanmiz, ertimizga bostirib kirgan makedoniyalik Iskandar, bosqinchi arablar, Eron shohlari, CHingizxon qo'shinlari, chor Rossiyasi va sobiq Ittifoq tuzumi madaniy jihatdan o'zidan ustun turgan xalqimizni o'zlariga bo'ysundirish qiyinligini sezishgan va shuning uchun ham ajdodlarimiz tomonidan yaratib kelingan madaniyatni yo'qotishga katta e'tibor berganlar. Ular tomonidan madaniy merosimiz talon-taroj qilindi, madaniy yodigorliklar yo'qotildi, milliy madaniyatni, ma'naviyatni rivojlantirishga harakat qilgan kishilarni esa yo'q qilishga intilganlar.

XIX asrning o'rtalarida Turkistonni bosib olgan chor Rossiyasi ham boshqa qo'plab bosqinchilar olib borgan siyosatni davom ettirdi.

Turkiston xalqlarini madaniy hayotdan uzoqlashtirish, ma'naviyatini yo'qotish, ularni o'z va tobe xalqqa aylantirish rus chorizm bosqinchilarining asosiy maqsadlaridan biri bo'ldi. Milliy-madaniy va ma'naviy merosni talon-taroj qilish chor Rossiyasi bosqinining birinchi kunlaridanoq boshlangan, biron bir narsa ularning e'tiboridan chetda qoldi. CHor Rossiyasi milliy madaniyatimizga va ma'naviyatimizga boshqa barcha bosqinchilardan ko'ra ko'proq zarar keltirdilar. CHunki, ular Turkiston xalqlari madaniyati va ma'naviyati o'zlarinikidan ustun ekanligini bilishar, lekin buni tan olishni istashmasdi.

SHarqdan, xususan, Turkiston o'lkasidan etishib chiqqan burok muta'fakkirlar jahon ilm-fani va madaniyatini o'z kashfiyotlari, o'lmas ilmiy asarlari bilan ijodiy boyitdilar, ruqori cho'qqiga ko'tardilar, uning bir necha asrlik taraqqiyotiga samarali ta'sir qildilar. Butun madaniy olamga taniqli olimlar va muta'fakkirlar, Samarqand, Buxoro, SHahrisabz, Xiva singari shaharlar yaratuvchilari bo'lmish ulug' ajdodlarimizning ijodiyoti o'zining ulug'vorligi va go'zalligi bilan hozirgacha hammani lol qoldirmoqda.

Bosqinchilar tomonidan toptalib kelingan milliy madaniyatimizga, ma'naviyatimizga nazar tashlar ekanmiz, uning tarixida Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat ruksak darajada taraqqiy etgan edi. Samarqand va boshqa ko'plab shaharlar esa madaniy markazlarga aylangan. Markaziy Osiyo madaniy, ma'naviy hayoti taraqqiyotida katta rol' o'ynagan mana shu davrlar CHor Rossiyasi, keyinchalik esa sobiq sovet Rossiyasi tomonidan mensimasdan qarab kelindi. Bosqinchilar tomonidan Turkiston xalqlari doimo madaniy va ma'naviy hayotdan uzoqda bo'lishgan, deb o'rgatilayotgan davrda, Evropaning ko'plab mamlakatlarida, xususan, Ffran'ciyada ajdodlarimiz madaniy hayoti tarixini o'rganishga katta e'tibor berib kelingan. 1988 yilda Ffran'ciyada temuriylar davri tarixi va madaniyatini o'rganish bo'yicha Ffran'cu'z assosasiyasi tuzildi. 2008 yilda ushbu assosasiyaning 20 yilligi nishonlanib, unda temuriylar davri madaniyati bilan shug'ullanuvchi Frederik Bressai xalqimiz madaniyati to'g'risida gapirib, **"Dunyoda ikkita nura'fshon va olamga mashhur shahar bo'lsa, bularning biri - Parij, ikkinchisi - Samarqand, biz doimo o'zbek xalqining qadimiy va o'ziga xos madaniyati va san'atini qadrlaymiz,"**- deb fikr bildirgan edi.

Qaramlik yillarida chet mamlakatlar xalqimiz madaniyatini o'rganishga bo'lgan intilish va harakatlar, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlar sovet davlati dushmanlarining fikrlari, deb qarab kelinardi.

Ilm-fan va madaniyatning eng rivojlangan markazlaridan biri bo'lgan Turistonni zo'ravonlik yo'li bilan bosib olgan chor hukumati erli aholini qaramlik va qullik, siyosiy karaxtlik va ruhiy qashshoqlik holatida ushlab turishni mustamlakachilik siyosatining markaziy masalalaridan biri, deb hisoblab keldi. Ana shu yovuz va makkorona siyosatini amalga oshirishning asosiy yo'l-yo'riqlari, "ilmiy asoslari"ni puxta va mukammal ishlab chiqish uchun ishni nimadan boshlash kerakligi haqida takliflar, fikr-mulohazalar, asosli xulosalar berish topshirig'i bilan podsho hukumati ko'pchilik olimlar va boshqa soha mutaxassislarini Rossiyadan Turkistonga yubordi. Yuborilgan harbiylar, huquqshunoslar, ayg'oqchilar, tarixchi va iqtisodchilar, nasroniy va boshqa din arboblari orasida yirik sharqshunos olim V. Bartol'd ham bo'lgan. Turkistondagi siyosiy-iqtisodiy vaziyatni, o'lkaning imkoniyat va sharoitlarini chuqur o'rganib chiqqan olim Bartol'd, Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasi ilmiy kengashida shunday deydi: "Biz shu paytgacha madaniy saviyasi o'zimizdan past bo'lgan xalqlarning erlarini bosib olgandik. Endi bo'lsa, Turkiston misolida tamom teskari holatga duch kelib turibmiz... Turkistonliklar bizning harbiy ustunligimizga tan berishadi, ammo ma'naviy ustunligimizni tan olishgani yo'q. Vazifa-ana shuni tan oldirishdan iboratdir... To shuni tan olishmas ekan, biz uzil-kesil g'alaba qozondik, deb ayta olmaymiz"¹.

CHor mustamlakachilari olimlar maslahatiga amal qilib, Turkistonda qanday qilib bo'lmasin, o'zlarining erli xalqdan "ma'naviy jihatdan ustunliklarini" isbotlashga va shu tariqa "uzil-kesil g'alabaga erishish"ga astoydil kirishdilar. O'tmishdagi bosqinchilar singari chor mustamlakachilari ham bu sohadagi amaliy ishni Turkiston xalqini bir necha ming yillik tarixi, madaniyati, urf-odatlaridan judo qilishdan, erli aholini ruhan-ma'nun mayib-majruh qilishga kirishishdan boshladilar. Bu bejiz emas edi, albatta. Balki chuqur o'ylab, uzoqni ko'zlab va rejalashtirib qo'yilgan mash'um siyosat edi. Ana shu siyosatning zaminida bir tomondan mustamlakachi chor hukumatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini oshkora himoya qilish turgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Turkiston xalqlarini, uning katta bir qismini tashkil etadigan o'zbek xalqini milliy o'zligini anglashdan butkul mahrum qilib, o'tmishini unutgan, vatanparvarlik tuyg'usidan judo bo'lgan, istiqbolini ko'ra olmaydigan odamlar guruhiga aylantirish muddaosi ham turardi.

O'zga xalqlarning, millatlarning madaniyatini, ma'naviyatini qadrlash, hurmat qilish insoniylik fazilatidir, shunday fazilatlarga ega bo'lgan kishilar o'zgalarning hurmatini qozona oladi. Amir Temur o'zi bosib olgan joylar aholisini urf-odatlari, madaniyatlarini hurmat qilganligi uchun ham, ularning rivojiga katta imkon va sharoitlar yaratib berganligi boisdan ham barchaning hurmatini qozongan edi. Lekin Amir Temur va shunga o'xshagan insonlarga xos bo'lgan bunday xususiyatlar rus bosqinchilarida yo'q edi. Ularning maqsadlari bosib olingan joylar aholisi madaniyatini butunlay yo'q qilish, ularni umrbod o'zlariga tobe qilish edi.

"Qariyb 150 yil davom etgan, tariximizning tom ma'nodagi qora kunlari bo'lmish o'sha zamonda bir paytlar o'zining qudratli davlatchiligi, burok

¹ Кобулов Б. Тупроғизор Туркистон. "Ўзбекистон овози" 1993 йил. 9-июль.

qarandlari, yuksak ilmu madaniyati, obod shahar va qishloqlari bilan dunyoni hayratda qoldirgan el-yurtimiz qanday og'ir mashaqqatlarga duchor bo'lganini yaxshi bilamiz"¹.

Millatni, xalqni yo'q qilishning, tanazzulga yoz tutdirish, mahv etishning mustamlakachilar manfaatiga mos keladigan eng yovuz va vahshiyona yo'llaridan biri - uni fikrlashdan, mulohaza yoritishdan to'xtatish, milliy tili, tarixi, madaniyati, milliy qadriyatlari rivojlanishiga yo'l bermaslikdir. Buning uchun esa eng avvalo uni boy o'tmishidan ajratish, ma'rifatsiz qoldirish lozim edi.

"Lekin ana shunday dahshatli davrda ham har qanday zulm va istibdodga qaramasdan, xalqimiz o'zini, o'zligini yo'qotmadi. Tilini va dinini, iymon-e'tiqodini saqlab qoldi"².

Millatning hayotini, millat sifatida saqlanib qolishini tilsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tilning ravonligi, inson tafakkuri uchun ko'rsatayotgan ta'siri milliy madaniyatning yuksakligidan dalolat beradi. Tilning milliy-ma'naviy tiklanish jarayonidagi, millatni millat sifatida saqlanib qolishdagi o'rni haqida gapirib, Prezident shunday fikrni bildiradi: "Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir"³. Tilni yo'qotmoqlik o'zlikni, milliylikni yo'qotmoqlikdir. Ona tilimiz doimo yuksak madaniyat belgisi bo'lib kelgan. Bosqinchilar ona tilining saqlanib qolinishi millat madaniyati va ma'naviyatiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin ekanligini bilganligi uchun ham ona tilimizga bo'lgan tazyiqni kuchaytirib kelganlar.

Prezident Islom Karimov: "Bugungi kunimizning o'ziga xos yorqin xususiyatlaridan biri millatning o'zligini anglashdir", degan edi o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida. Demak, **millatning o'zligini anglash** tushunchasi (o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi):

1. Milliy birlik va boshqa etnoslarning mavjudligini tushunib etish.
2. Milliy qadriyatlar: til, tug'ilib o'sgan joy, madaniyatga sodiqlik.
3. Milliy manfaatlarini tushunib etish.
4. Milliy mustaqillik va milliy taraqqiyotga intilish.
5. Vatanparvarlik.

SHaxsning milliy o'zligini anglash deganda:

1. Millat (etnos)ga mansubligini anglab etish.
2. O'z millatining insoniyat tarixidagi tarixiy o'rnini anglash.
3. Milliy qadriyatlarga sodiqlik.
4. Millat ehtiyoj va manfaatlarini anglash, uning rivojlanish yo'larini bilish.
5. Milliy taraqqiyotga vijdonan xizmat qilish.

Ma'rifat, madaniyat, milliy onglik, milliy til, milliy urf-odat, milliy qadriyat - bularning hammasi xalqning xalq ekanligini belgilaydigan omillardan hisoblanadi. Ma'rifat xalqni o'z o'tmishini bilishiga va istiqbolini tushunib

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 25-26-85 -бетлар.

² Ўша асар 25-26- бет

³ Ўша асар 83-бет

etishiga yordam beradi, Vatanni sevishga, u bilan faxrlanishga da'vat etadi, dushmanlarga qarshi murosasiz kurash olib borishga, erk va adolat uchun jasorat ko'rsatishga undaydi. Ma'rifatli xalq shijoatli, jasur xalqdir. Ma'rifatsiz xalq esa milliy jihatdan o'zini anglab ololmaydi, o'zining haq-huquqlarini himoya qilish zarurligini tushunib etmaydi, taqdirga tan berib yashashni o'ziga ep ko'radi. CHorizm amaldorlari buni yaxshi bilganliklari uchun erli xalqni madaniyat va ma'rifatidan bebahra qoldirish masalasiga birinchi darajali ahamiyat berdilar, bu yo'lda hech narsadan tap tortmadilar, insofu diyonatni, rahm-shaqqatni butunlay yig'ishtirib qo'ydilar. CHor Rossiyasining Turkistondagi siyosati milliy tuyg'uni poymol etishga, milliy qadriyatlarni toptashga, butkul yo'qotib yuborishga qaratilgan edi. Buxor davlatchilik kayfiyatidagi chor ma'murlari o'zlari bosib olgan Turkiston xalqlarini qullikda tutishning eng yaxshi usul va yo'llarini o'ylab topgan edilar.

To'g'ri, ilg'or rus ziyolilari o'zbek xalqining, shuningdek, boshqa xalqlarning madaniyatiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Ular o'lkada ilm-fan va madaniyatning rivojiga ma'lum hissalarini qo'shdilar. Lekin bu chorizm siyosati bilan bog'liq emasdi. Aslida, chor Rossiyasi foyda ko'rish maqsadida zavod va fabrikalarda ishlayotgan odamlarning mehnat unumdorligini oshirish, texnika bilan qurollantirish uchun ularni o'qitishga majbur edi. CHorizm bu erda savodsizlik, bilimsizlik holatini mustahkamlashdan manfaatdor edi.

Milliy g'ururi so'ndirilgan, madaniyati, tili, urf-odat va qadriyatlari kamsitilgan, haq-huquqlari, izzat-na'fsi erga urilib, ruhan ezilib, umidsizlikka tusha boshlagan xalq va millat mustamlakachilar uchun tayyor o'ljadir.

CHor hukumatining Turkistondagi mustamlakachilik siyosatining tub negizi va mohiyatida qanday maqsad va muddao yotganligini xalqimizning bilimli, madaniyatli, ziyrak, oqilu dono farzandlari allaqachon tushunib etgan edilar. CHor mustamlakachilik siyosati mohiyatini fosh etgan, xalqni erk va ozodlikka, bilim va madaniyatga chorlagan, milliy qadriyatlarimizni qo'llab-quvvatlagan, shu yo'lda halok bo'lgan buxor qalb egasi Abdurauф Фитрат, "Ko'rdim, kezdim, eshitdim, o'qidim. Mamlakatlar orasida Turkistonimiz kabi baxtsiz bir mamlakat yo'qdir", deb yozgan edi¹.

Фитрат hamma illat va kasoфatning, har qanday zulm va istibdodning, o'z yurtida begona bo'lib, azob-uqubatda yashashning asosiy sababi mustamlakachilikda ekanini ko'rsatib quyidagilarni bayon etgan: "Rus kapitalistlari bilan rus poplarining sodiq va ishonchli qoravullari bo'lg'on eski Rusiya hukumati ellik yil orasida Turkistondagi turk bolalarining foydalariga biror ish ko'rdimi, ko'rmoqchi bo'ldimi?"

Mana shul savolga - "yo'q!" dan boshqa bir javobimiz yo'qdir.

SHunday qilib, chorizm, pomeshchik va burjuaziyaning Turkiston xalqlariga nisbatan tutgan siyosati - bu xalqlar o'rtasidagi har qanday davlat kurtaklarini yo'q qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy taraqqiyotini bo'g'ish, ularga erkinlik bermaslik, milliy qadriyatlarini erga urish va kamsitish,

¹ Болтабоев Х. Юрт кайғуси.//Шарқ юлдузи, 1992, 4-сон, 181-б.

milliy g'ururlarini, ma'naviyatini poymol etish, qo'rquvda ushlashdan iborat edi. Turkiston xalqlarining o'tmishda qoloq va kam taraqqiy etganligi, madaniyatining pastligi, siyosiy jihatdan orqadaligi chor mustamlakachiligi siyosatining natijasidir.

Oktyabr' inqilobi g'alabasidan keyin, sobiq sovet hokimiyatining dastlabki yillarida boshqa respublikalarda bo'lganidek, O'zbekistonda ham, albatta, madaniy taraqqiyot bo'ldi, tabiiy va ijtimoiy fanlar anchagina o'sdi, milliy ziyolilar safi kengaydi, iqtisodda, ijtimoiy, siyosiy hayotda ijobiy o'zgarishlar bo'ldi. Bundan ko'z yomish mumkin emas. Lekin O'zbekiston Davlat mustaqilligiga qadar bo'lgan etmish to'rt yil ichida madaniy taraqqiyotimiz imkoniyatlaridan to'la foydalana olmadik. Markaz tomonidan iorgizilgan davlat siyosati tufoayli milliy tilimiz, tariximiz, urfo-odatlarimiz rivojlanishiga yo'l bermaydigan g'ovlar paydo bo'ldi. Bu ham bir katta siyosat edi.

Sobiq sovet tuzumi davrida xalqimiz madaniy-ma'naviy merosini toptashga bo'lgan harakatlarga barham berilgani yo'q, aksincha, bunday harakatlar yanada kuchaytirildi. Mazkur tuzum davrida hukmron mafkura sobiq SSSR hududidagi barcha xalqlar, millatlar madaniyatini yo'qotishga bo'lgan urinishlar kuchayib borishi bilan birga "YAgona sovet madaniyati" degan g'oya ostida birlashtirishga qaratilgan siyosat olib borildi.

Xalqimizning milliy madaniyatini yo'qotishga bo'lgan harakat qadimiy qadriyatlarimiz bo'lgan adabiyotimizni ham o'z ichiga olgandi. Ko'plab dostonlarimiz, rivoyatlarimiz, ertaklar, maqollarga, milliy qo'shiqlar, hunarmandchilikka eskilik sarqiti deb, partiyaviylik nuqtai nazaridan qarab kelindi. O'zbek xalqining boy og'zaki ijodiyotiga kommunistik mafkura talabidan kelib chiqqan holda yondashildi. Milliy madaniyatimizga xalqimiz mentalitetiga to'g'ri kelmaydigan Evropa xalqlariga xos bo'lgan xususiyatlarni olib kirishga bo'lgan harakatlar kuchaydi.

Markazdagilarning asl muddaosi milliy chekka o'lka xalqlarini "gah desa qo'llariga qo'nadigan" darajaga tushirish bo'lsa, qatog'onlik siyosati "qizil imperiya"ning ana shu muddaosini yozaga chiqarish uchun astoydil xizmat qildi.

Mustamlakachilarning xalqimiz milliy madaniyati va ma'naviyatini yo'qotishga qaratilgan harakati ko'plab turkistonlik ziyolilarni tashvishga soldi. Milliy madaniyat va ma'naviyatni saqlab qolish yo'lida XIX asr oxirlari XX asr birinchi yarimida faoliyat yoritgan jadidlar harakati qatnashchilari fidoiylilik ko'rsatdi.

"Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Ishoqxon, Ibrat, Abduraufo Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid CHO'lpon, Usmon Nosir kabi yozlab ma'rifatparvar, fidoiyi insonlarning o'z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yortimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi"¹.

Jadidlarning asosiy maqsadi jamiyatni o'rta asrchilik illatlari, madaniy qoloqlik, mustamlaka zulmidan, xurofotdan ozod etib, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish edi.

¹ Каримов И.А. Юсак маънавият — енгилмас куч. — Т.: Маънавият, 2008. - 49-б.

Xalqimizga nisbatan qo'llanilgan qatag'onlik siyosati milliy madaniyatimiz, ma'naviyatimiz rivojiga katta hissa qo'shishi mumkin bo'lgan ko'plab ziyolilarning, davlat rahbarlarining o'limiga sababchi bo'ldi. Qatag'onlik siyosati milliy ma'naviyatimizga, madaniyatimizga juda katta zarar keltirgan harakat sifatida tarixda qoldi.

Faqat O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan keyingina erkimiz va haq-huquqlarimizni, tilimiz, tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz rivojini bo'g'ib tashlashga qaratilgan qatag'onlik siyosatiga abadiy chek qo'yildi.

2. Mustaqillikning ma'naviy-axloqiy zaminlari.

Mustaqillik muqaddas tushuncha bo'lib, u uzoq vaqtlar mobaynida davom etadigan va hech qachon orqaga qaytmaydigan murakkab tarixiy jarayondir. Ajdodlarimiz orzusi bo'lgan, mashaqqatlar bilan qo'lga kiritilgan mustaqillikni avaylab-asrash, uni tabora rivojlantirib, yanada mustahkamlash har birimizning burchimizdir. Bugungi kunda O'zbekiston barcha fuqarolarining oldida mustaqilligimiz zaminini mustahkamlash, tarixiy taraqqiyotimizni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ko'plab muammolarni hal etish singari mas'uliyatli vazifa turibdi.

Biz yashab turgan davlatimiz o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga intilib, rivojlanib borayotgan davr ertangi buyuk kelajak tariximiz uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan katta burilish davridir. O'zining ertangi hayoti va istiqboliga loqayd qaraydigan jamiyatning kelajagi bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi hozirgi avlodi kelajak istiqbolimizga katta qiziqish bilan qarab, millatimiz taqdirini o'ylab, tarix oldidagi mas'uliyatini chuqur his qilib mehnat qilmoqda va shu tariqa mustaqillik zaminlarini peshma-pesh yaratib kelmoqda.

O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik¹.

Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati, manbai-xalqimizning umumin soniy qadriyatlarga sodiqligi bilan birga, uning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirishdir.

Mustaqillikni faqat iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarga asoslanib, odamlar turmush sharoitini yaxshilash bilan ta'minlab bo'lmaydi. Jamiyat taraqqiyotini tezlashtirishning iqtisodiy va siyosiy omillari singari zarur bo'lgan yana bir muhim asosi boriki, usiz mustaqillikni mustahkamlab ham, muhim barqarorlikka erishib ham bo'lmaydi. Mustaqillik iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bilan bir qatorda odamlar ongi va dunyoqarashida, odob-axloqi, iymon-e'tiqodi,

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 76-б.

bilim-saviyasi va ruhiyatida, madaniyati va ma'naviyatida, ta'lim-tarbiyasida ham tub, asosli o'zgarishlar bo'lishini talab etadi.

Agar mustaqillikning ma'naviy zamini zaiφ bo'lsa, xalqimiz o'zining milliy tilini, madaniyati va an'analarini, rasm-rusumlarini hurmat va ehtirom qiladigan, umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlaydigan, ulardagi olijanob g'oya va hikmatlardan oqilona hamda ijodiy foydalanadigan darajadagi kamolot bosqichiga erishgan bo'lmasa, mustaqillikning ma'naviy zamini baquvvat bo'lmaydi. Dunyodagi har bir davlat katta-kichikligidan qat'i nazar, o'zining taraqqiyoti jarayonida ma'naviyatga ehtiyoj sezgan va sezadi. Bu-tarixiy zaruriyatdir. Ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tarixning burilish davrlarida ayniqsa beqiyos bo'ladi.

Bugungi kunda yurtimizda jamiyatimiz ma'naviy hayotini røksaltirish, mustaqillikni mustahkamlashda ma'naviyatning rolini yanada oshirish, ma'naviyatni røksaltirmasdan turib oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olmasligimizni fupqarolarga tushuntirish asosiy vazifalardan biriga aylangan. Bu - bejiz emas, albatta. CHunki kelajakda buyok davlat egasi bo'ladigan komil insonni tarbiyalamasdan, ma'naviy, axloqiy barkamol qilmasdan turib, olg'a tomon rivojlanish, mustaqillik muammolarini hal etish mumkin emas, bu - birinchidan. Ikkinchidan, hozirgi bozor iqtisodiyoti chuqurlashib borayotgan, mamlakat modernizatsiyalashayotgan bir sharoitda murakkab vazifalarni muvafφaqiyatli hal etish fupqarolarning ma'naviy-axloqiy kamoliga, imon-e'tiqodiga, g'oyaviy-siyosiy etuklik darajasiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Mustaqillik uchun ma'naviyatning ahamiyati shu qadar bebahoki, uni hech qachon ikkinchi o'ringa surib qo'yish ham, shuningdek, ma'naviyat masalasiga iqtisodiy muammolarni hal qilib bo'lgandan keyin o'tish mumkin, deb o'ylash ham tamomila xatodir.

Darhaqiqat, iqtisodiyot bilan ma'naviyat bir-biriga o'zaro aloqasi yo'qday bo'lib ko'rinishi mumkin. Aslida esa bu - uning tamomila teskarisidir. Jamiyat hayotida iqtisodiyotsiz ma'naviyat, ma'naviyatsiz iqtisodiyot yo'q va bo'lmaydi ham. Zero, demokratik, huquqiy jamiyatni barpo etishning ma'naviy asoslarini boshqarish iqtisod, siyosat va ma'naviyatning o'zaro uyg'unligini ta'minlash bilan bog'liq bo'ladi. "Biz iqtisodiy o'nnglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish ma'naviy o'nnglash, ma'naviy poklanish, ma'naviy røksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishini istaymiz. Siyosatimizni shunga quramiz va uni to'la tadbiiq etamiz, - degan edi Prezident I.A.Karimov.-Ma'naviyat va iqtisod bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib, rivojlanib boradi. Milliy kamolot yo'li mana shu"¹.

Jamiyat taraqqiyoti uchun kerak bo'lgan moddiy boyliklarni yartish, insoniy munosabatlarni yanada yaxshilash va takomillashtirish, oilaviy munosabatlarni odob-axloq qoidalari asosida olib borish, milliy hamkorlik, milliy hamjihatlik, milliy totuvlikni yo'lga qo'yish, mahalliychilik, guruhbozlik, qarindosh-urug'chilikka asoslanib ish ko'rish singari illatlarga qarshi kurashish uchun, xullas, hamma masala va sohada ma'naviyat juda zarur.

¹ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. – 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 35-б.

Bugungi hayotimiz va kelajagimiz uchun qobiliyatli, har tomonlama rivojlangan, aqlan etuk va barkamol, ma'naviy, axloqiy jihatdan kamolotga etgan, mustaqil fikrlay oladigan va tashabbuskor, iste'dod va ta'fakkur quvvatini Vatani va millati manfaatiga xizmat qildirishning o'zi uchun oliy maqsad deb hisoblaydigan fidoyi insonlar juda ham zarur. "Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz..."¹.

Inson kamoloti millat va mamlakat rivojiga asos bo'ladi. Bu yirik davlat bo'lish uchun jamiyatning har bir a'zosi kamolotga erishgan, xalqi esa bu yirik, oqilu dono, madaniyatli, ma'rifatli, dunyo tanigan bo'lishi lozim. Ana shu g'oyatda murakkab va mas'uliyatli vazifani bajarishda milliy ma'naviyatimiz asosiy omildir. U istiqbolimiz va istiqbolimiz tayanchidir. Milliy ma'naviyatimiz har bir insonda ona yurtga muhabbat va sadoqatning qaror topishida, shu muqaddas tuproqqa egalik tuyg'ularini shakllantirishda, Vatanni himoya qilish, avaylab-asrashdek olijanob insoniy fazilatlarini ildiz ottirish va rivojlantirishda katta o'rin tutadi.

Ma'naviyat insonning o'zligini anglab olishda unga yordam beradi. O'zligini anglagan insongina, o'zligini anglagan millatgina kuchli davlat, erkin davlat barpo eta oladi.

Milliy jihatdan o'zligini tanigan inson millatini, Vatanini, uning o'tmish tarixini, adabiyoti, san'ati va madaniyatini, jahon qivilizatsiyasiga unutilmas hissa qo'shgan va ta'fakkur osmonida yulduzday porlab turgan bu yirik allomalar vorislari ekanligini bilib oladi. O'zligini anglagan inson, o'zligini anglagan millat ulug' ajdodlarining sha'ni-shavkatiga, aqlu zakovatiga, ularning hayotbaxsh, qutlug' meroslariga hamisha munosib bo'lishga harakat qiladi, Vatanini o'zgacha mehr bilan sevadi, u bilan cheksiz faxrlanadi, yurtim deb, elim deb yashaydi. Otabobolari an'analarini davom ettirishni, ular etolmagan taraqqiyot cho'qilarini egallashni o'zining asosiy maqsadi deb hisoblaydi, milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlardan ajratmaydi.

Milliy o'zligini anglash, olamni bilish, unda ro'y berib turgan murakkab hodisa va jarayonlar mohiyatini ilmiy fahmlab olish demakdir. Milliy jihatdan o'zini anglagan insongina mamlakati va millati oldida turgan asosiy maqsad-muddaolar nimadan iboratligini tushunib etadi, o'zining el-yurt oldidagi burchi va mas'uliyatini chuqur anglaydi.

Prezident tomonidan qayta-qayta aytib kelinayotganidek, ma'naviyat o'z xalqi tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.

Ma'naviyatning jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi ahamiyati aytib o'tilganlardangina iborat emas. Ma'naviyatning bebaholigi uning turli xalqlar va mamlakatlar kishilarini qon-qarindosh qilishligida, ularning taqdirini o'zaro hurmat asosida yaqinlashtirishida ham yaqqol ko'rinadi. Ma'naviyat inson hayotini go'zallashtiradi, turmushiga mazmun va mohiyat bag'ishlaydi. Yuksak ma'naviyat

¹ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. – 7-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – 134-б.

va madaniyat sohibi bo'lgan inson otashin vatanparvar, iorti va xalqi ishiga fidoyi, qalbi pok, so'zi bilan ishi bir, ilmi xulqiga monand bo'ladi.

Mustabid tuzum siyosati talabi va zo'ravonligi asosida imlomiz ketma-ket ikki marta o'zgartirildi. 1929 yilda arab alifbosidan lotin alifbosiga o'tildi. Oradan o'n ikki yil o'tgach, kirill alifbosi qabul qilindi. SHu tariqa xalqimiz o'zining 1000-1200 yillik ko'hna tarixidan, o'tmishidan, madaniy merosidan mahrum bo'ldi. Ota-bobolarimizdan qolgan kitoblar, asosan arab, fars tillarida yozilgan. Endi o'sha kitoblarni o'qiy olmaydigan bo'lib qoldik. Bu kitoblar orasida turkchalari ham bor edi, til bilmaganimiz uchun ular ham bizga yot bo'lib qoldi. YAqin o'tmishning riyokor siyosati natijasida mo'g'ul bosqini keltirgan yo'qotishdan ham ko'ra kattaroq ma'naviy falokatga uchradi. Bu ham yuqorida aytilganday, o'z qo'l ostidagi xalqlarni qul o'rnida ko'rish namunasi, tariximizni, madaniyatimizni, milliy boyliklarimizni, milliy qadriyatimizni yo'qotishga urinishning yangicha yo'li edi.

Umuman, SHo'ro davrida o'zbek tili quyidagicha o'zgartirib borildi:

1.1917-1929 yillarda oktyabr' inqilobidan keyin 19-yillarda o'zbek yozuvi arab grafikasi asosida birinchi marta isloh qilindi.

2.1929-1940 yillarda, xususan, 1929 yili arab grafikasidan o'zbek yozuvi lotin alfaviti bilan almashtirildi.

3.1940-1991 yillargacha, xususan, 1940 yili esa o'zbek tili rus grafikasi asosidagi yozuvga o'tildi.

XIII asr davomida qo'llanib kelingan arab alifbosidan o'zbek xalqi judo qilinganligi tuflayli yosh avlodning o'tmishdan qolgan boy madaniy merosni o'qib-o'rganish imkoniyatlari cheklab qo'yildi.

Insofu diyonatini yo'qotgan kommunistik mafkura yalovbardorlari, arab va lotin alifbolarini yo'qotib, maqsadlariga erishib bo'lgach, o'zbek xalqi inqilobga qadar savodsiz edi, yozuvi ham, maktabi ham, kitobi ham, olimi ulamolari ham bo'lgan emas, ularning tili ham juda oddiy va rivojlanmagan edi, degan safsatani butun dunyoga yoydilar. Bu o'zbek xalqi uchun g'irt tuhmatdan boshqa narsa emasdir.

SHu narsani alohida qayd etib o'tmog'imiz kerakki, Turkiston, ayniqsa, o'zbeklar, tojiklar, qozoqlar, turkman va qirg'izlar istiqomat qilib kelayotgan O'rta Osiyo hamma davrlarda ham jahonning yirik ilm-fan va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lib kelgan. Bizning o'lkamizda Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy, Mashrab kabi mashhur allomalar va mutaflakirlarning yashaganligi, ijod qilganligini, mana shu zaminda olim va shoir sifatida tanilib, dunyoga dong taratganliklarini tasodifiy bir hol deb ayta olmaymiz. Binobarin, biz o'lkamizda zulmat nimaio ziyo nima ekanligi to'g'risida gapirganimizda, mana shu narsani e'tibordan chetda qoldira olmaymiz.

O'lkamizda juda katta ma'rifat, madaniyat va fan ilgari ham bo'lgan. O'rta Osiyodan Buyuk Ipak yo'lining o'tishi, SHarq bilan G'arbning bog'lanishi o'lkaning madaniy kamolotiga ham ta'sir etgan edi, albatta.

Abduraufl Fitrat o'zining "Hind sayyohining qissasi" asarida inqilobdan oldin birgina Buxoroning o'zida ikki yuzdan ortiq madrasa bor edi, - deb ma'lumot

beradi¹. Markaziy Osiyodagi madrasalarda tahsil olish uchun turli mamlakatlardan ko'plab talabalar kelishgan. Ular bu erning g'aroyibatlariyo, uning tabiati uchungina kelganlari yo'q. Balki Markaziy Osiyoda bilim olish mumkinligi, o'lkamizda ham diniy, ham ilmiy, ham barcha fanlar bo'yicha dunyoga tanilgan allomalar bor bo'lganligi uchun ham bu erga kelib o'qiganlar. CHunki ba'zi olimlar "isbotlamoqchi" bo'lganlaridek, Samarqand, Buxoro, Xiva madrasalarida faqat diniy ta'limot o'rgatilgan emas. Qolaversa, diniy ta'limotning o'zini ham qanaqadir quruq safsata, deb atash mutlaqo noto'g'ri. Diniy ma'lumotlar ham o'zida insoniyatning ilmiy, madaniy, ma'naviy, axloqiy, ruhiy kamoloti bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan. SHuning uchun madrasalarda na faqat diniy ta'lim, balki o'sha davrlardagi zamonaviy fan va madaniyat bilan bog'liq bo'lgan juda ko'plab ilmlar ham o'rgatilgan. Endilikda madrasalar xususida gap borganda, ularni diniy ta'limot va targ'ibot manbaigina emas, balki o'sha davr uchun xos bo'lgan fanlar targ'ibot qilinadigan dargoh, deb qaramoq lozim.

Юqorida aytib o'tilgan fikrlar Markaziy Osiyo xalqlarining uzoq o'tmishda ham, inqilobdan oldin ham savodsiz, johil bo'lmaganligini ochiq-oydin ko'rsatib va isbotlab turibdi.

YAna shu narsani ta'kidlashga to'g'ri keladiki, insoniyatga ma'lum bo'lgan tillar va madaniyatlarning har biri o'z tarixiga ega bo'lib, taraqqiyotning ko'pgina bosqichlaridan o'tgan. Har bir milliy tilning va madaniyatning o'ziga xos muayyan xislat va fazilatlari bor. O'zbek tili ham shunday tillar sirasiga kiradi.

O'zbek tili O'rta Osiyodagi eng qadimiy va boy tillardan biri. "Umuman, turkiy tillar yirik ikki oqimda rivojlandi,-deydi O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi Iristoy Qo'chqortoev davlat tili haqidagi qonunning bajarilishi va ona tilimiz ahvoliga bag'ishlangan davra suhbatida, uning biri turk tili bo'lsa, ikkinchisi o'zbek tilidir. Roman tillarini rivojlantirishda lotin tili qanday rol' o'ynagan bo'lsa, O'rta Osiyo va Qozog'iston mintaqasidagi turkiy tillarni rivojlantirishda o'zbek tili shunday rol' o'ynadi. Demak, o'zbek tili keng miqyosda qo'llashga munosib va e'tiborga sazovor tildir. Unda barcha turkiy lisonlarga xos fazilatlar mujassam. Muhimi, til uchun katta boylik hisoblangan shevalari ko'p. Qarluq, o'g'iz, qipchoq kabi shevalar o'zbek tiliga o'ziga xos fazilatlar baxsh etadi. Ayni paytda bu shevalar tilning tabiiy etnik ildizi hamdir. Qisqasi, o'zbek tafakkur olami turk dunyosining katta va muhim qismini tashkil etadi"².

Tariximizning so'nggi 74 yili mobaynida, ya'ni mustaqillikka erishganimizga qadar o'zbek tili eski kommunistik mafkura iorgizgan siyosatning biryoqlamaligi sababli keyingi o'rinlarga surib tashlandi, uning amal qilish doirasi yildan yilga qisqarib bordi. O'zbek tili mamlakat aholisi 72 foizidan ortig'ini tashkil qiladigan millatning tili bo'lishiga qaramay, unga bo'lgan e'tibor va qiziqish o'z-o'zidan kamayib ketdi. O'zbek tilining hayotda qo'llanilishi va

¹ Абдурауф Фитрат. Хинд сайёҳининг киссаси. //Шарқ юлдузи, 1991, 8-сон, 14-б.

² Қўчқортөв И. Тил – миллат қалби//Мулоқот, 1991, 10-сон, 17-б.

istiqbolining xavf ostida qolishi xalqimizni qattiq tashvishga soldi. Bu narsa xalqning kuchli noroziligiga va haqqoniy e'tiroziga sabab bo'ldi.

3. O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilish arafasida ayrim siyosiy guruhlar O'zbekiston sharoitiga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan, bir-biriga zid, qarama-qarshi fikrlarni ilgari surdilar. Ular xalq o'rtasida soxta obro' topishga, odamlarni o'z orqalaridan ergashtirishga harakat qildilar. O'zbek tili haqidagi Qonunni qabul qilish masalasi bo'yicha O'zbekistonda bahslar, munozaralar, tortishuvlar uzoq davom etdi.

Davlat tili to'g'risidagi qonun o'z vaqtida qabul qilinganligi, mana shunday tarixiy jarayonda markazda va o'zimizda qulay bahona va payt poylab turgan, g'arazli maqsadlarni ko'zlagan kuchlar mavjud bo'lganligi ona tilimizning bundan keyingi taqdiri o'zimizga bog'liq bo'lganligi to'g'risida gapirib, Iortboshimiz I.A.Karimov "Юксак ма'naviyat-engilmas kuch" asarida shunday fikr bildirdi: "Avvalo, respublika Oliy Kengashi qoshida til bo'yicha taniqli olimlar, ijodkor ziyolilar, jurnalistlar va jamoatchilik vakillaridan iborat maxsus komissiya tashkil qilindi. Komissiya a'zolari aholining turli ijtimoiy qatlamlari, siyosiy guruhlar, barcha millat va elat vakillari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni atroflicha o'rganib, respublika rahbariyati va keng jamoatchilikka doimiy axborot berib borar edi. Ana shunday ishchanlik ruhida Oliy Kengash sessiyasiga taqdim etiladigan loyihaning har bir moddasi bo'yicha har taraflama fikr almashuv, bahs va munozaralar bo'lib o'tdi"¹.

Til uchun bo'lgan kurashda o'zbek xalqi o'zini ko'rsatdi. Eng muhimi, bu kurashda xalq uyg'ondi.

Uzoq davom etgan bahslar, tortishuvlar, munozara va muhokamalardan so'ng O'zbekiston Oliy Kengashi o'n birinchi sessiyasida 1989 yil 21 oktyabrda "O'zbekiston SSRning davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilindi².

O'zbekistonda davlat tili to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi o'zbek xalqining, respublikamizda yashovchi boshqa xalqlarning siyosiy va madaniy-ma'naviy hayotida ro'y bergan g'oyat muhim voqea bo'ldi.

O'zbek tiliga davlat maqomi berilishi haqidagi tarixiy qonun o'zbek tili obro'-e'tiborini ko'tardi, uni oyoqqa turg'azish uchun zarur bo'lgan moddiy shart-sharoitlar, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy asoslar yaratildi.

Qonunga binoan, o'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tili, deb e'lon qilindi. Bu hol xalqimizni behad quvontirib, dilini yayratib yubordi va milliy g'ururini yuksaltirdi.

Davlat tili to'g'risidagi Qonunning qabul qilinishi xalqimiz uchun muqaddas qadriyatlardan hisoblangan ona tilimizning qonuniy asoslarini yaratib berdi, tilimiz o'z himoyasiga ega bo'ldi.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 84-б.

² Она тили – Давлат тили. – Т.: Адолат, 2004. – 5-13-б.

Davlat tili haqidagi Qonun milliy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirish uchun shunday bir taraqqiyot yo'lini ochib berdiki, bunday baxtli kunlar keladigan damlarni xalqimiz uzoq yillar osha intiqib kutgan edi.

O'zbekiston Respublikasida o'zbek tilining davlat tili deb qonun yo'li bilan belgilab qo'yilganligi xalqimiz uchun chinakamiga yangilik edi. Tilimiz, tariximiz, madaniyatimiz, butun ma'naviy hayotimiz tazyiq ostiga olinganligi, diniy, axloqiy, milliy qadriyatlarimiz oyoq osti qilinganligidan qanchalik aziyat chekkanligimizni hali unutgan emasmiz. Bundan kelgusi nasl-nasablarimiz, necha-necha avlodlarimiz o'zlari uchun, albatta, tegishli xulosalar chiqarib oladi.

Til haqidagi qonunning butun ruhi, mazmun va mohiyatida o'zbek tilining ijtimoiy vazifalarini kengaytirish haqidagi g'oyalar ustuvorlik qilganligi e'tiborga sazovordir.

Qonunga asoslanib, yana shuni alohida ta'kidlashga to'g'ri keladiki, o'zbek tili va madaniyati keng rivojlanadigan, gullab-yashnaydigan, o'z imkoniyatlarini to'la namoyon etadigan asosiy maskan, asosiy zamin - bu O'zbekistondir. O'zbekiston - o'zbek tili va madaniyatining taraqqiyot o'chog'idir. O'zbekiston - o'zbek xalqi va tili himoya qilinadigan Vatandir. O'zbek tili O'zbekistonda himoya qilinmasa, ravnaq topmasa, xo'sh, u qaerda ishlatiladi, uni kimlar himoya qiladi va qanday rivojlantiriladi? Xuddi shuningdek, boshqa milliy tillar va madaniyatlar ham o'z tarixiy vatanida ravnaq topish imkoniyatiga ega. Buni unutmasligimiz lozim.

4. Davlat tilining ravnaqi

O'zbekiston Respublikasi o'zbek tili va madaniyatini butun choralar bilan rivojlantiradi, uning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida to'liq amal qilishini ta'minlaydi. O'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulkidir¹. Bu haqda qonunda aytib o'tilgan.

O'zbek tilini qo'llanish sohalarining kengayishi boshqa tillarning rivojlanish imkoniyatlarini cheklamaydi. Bu narsa qonunning bosh qismida alohida ta'kidlangan, boshqa ko'pgina moddalarda ham yana bir bor qayd etilgan.

Boshqa elatlar va millatlarning tilini hurmat qilish, ularni kamsitmaslik milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida katta rol o'ynaydi. Mustaqillik O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millatlar o'z ona tili rivoji haqida qayg'urish imkonlarini kengaytirdi. Ta'lim, kerakli ma'lumotlar olish huquqlarini kafoflatlab berdi. Prezident bu haqda gapirib, "Qabul qilingan qonunda davlat tili bilan birga yurtimizdagi barcha millat va elatlarning tillarini rivojlantirish, davlat yo'li bilan himoya qilish, tili, dini va millatidan qat'i nazar, har bir fuqaroning o'z ona tilida ta'lim, axborot, kerakli ma'lumot olish kabi huquqlarini kafoflatlash masalalari aniq belgilab qo'yilgan edi"¹, deydi.

Davlat tili haqidagi Qonun qabul qilinib, mustaqillikka erishganimizga qadar O'zbekiston davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida, anjuman,

¹ Она тили – Давлат тили. – Т.: Адолат, 2004. – 6-б.

¹ Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 85-86 -бетлар.

plenum, qurultoy, sessiya, konferençiya, majlis va kengashlar o'zbek tilida emas, rus tilida olib borilardi, qonun, qaror va boshqa hujjatlar shu tilda tayyorlanardi, o'zbek tiliga keyin tarjima qilinardi. Birorta odam, nima uchun shunday, deb so'ray olmasdi. Hozir ana shunday iztirobli davrlar biz uchun o'tmish bo'lib qoldi. Zanjirband qilib tashlangan tilimiz istibdod kishanlaridan qutuldi, erkin bo'ldi.

Til haqida Qonun qabul qilinishi natijasida korxona, muassasa va tashkilotlarda hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari respublika davlat tilida olib boriladigan, notarial ishlar, fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar hamda turli shahodatnomalar o'zbek tilida yoziladigan bo'ldi. YAqin-yaqinlargacha ham ana shu masalalar bo'yicha o'zbek tiliga mensimasdan qarash odat tusiga kirib qolgandi.

Bu xaqda Prezident I.A.Karimov shunday fikrlarni bildirdilar: "Holbuki, bundan yigirma yil oldin oddiygina ariza yoki ma'lumotnomani ham o'zbek tilida yozishning imkoni yo'q edi. Bugun bu haqda gapirsangiz, ko'pchilik yoshlarning ishonishi qiyin"².

Mustaqillik yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasini kengaytirib borish imkonlari yanada ortib bormoqda. Mustaqillik yillarida ilmiy tadqiqot ishlarini o'zbek tilida taqdim etish, ilmiy ishlarni himoya qilish va nashr qilish huquqi ta'minlandi. O'zbekistonda chiqadigan kitoblar, gazeta va jurnallar, davriy xabarnomalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalarining, asosan, davlat tilida nashr etilishi, televidenie ko'rsatuvlari va radioeshittirishlar o'zbek tilida olib borilishi xalqimizning madaniy-ma'naviy saviyasini yuksaltirish, milliy ongini o'stirishda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

Milliy g'ururimizni o'stirishda hamda milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qarashni ta'minlashda til haqidagi Qonunning, O'zbekistonda davlat tiliga va boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi, degan qat'iy talabi muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunda belgilab qo'yilganidek, mansabdor shaxslarning respublika davlat tilini bilmaslikni ro'kach qilib, takliqlar, arizalar va shikoyatlarni olishdan yoki ko'rib chiqishdan bosh tortishlari man etiladi, amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

O'zbekiston tili o'z rivojlanishining bir necha ming yillik tarixi davomida hech qachon bunday imkoniyatga ega bo'lgan emas. Uning rivojlanishi, bir tomondan, tilimizning o'z lug'at fondi, o'ziga xos imkoniyatlari va milliy xususiyatlari, taraqqiyot qonuniyatlari bilan belgilansa, ikkinchi tomondan, boshqa xalqlarning tili va madaniyati bilan o'zaro yaqinlashish, o'zaro bir-birini boyitish asosida rivojlanib, boyib borishiga ham bevosita bog'liqir. Boshqa milliy tillar singari o'zbek tili rivojlanishining ham asosiy yo'llaridan biri - o'zaro yaqinlashish va bir-birini boyitishdir. Bu uning rivojlanishi uchun yanada keng imkoniyatlar yaratadi. O'zbek tilining boshqa xalqlar tillar va madaniyatlari bilan o'zaro aloqadorligi uchun til haqidagi Qonun qabul qilingandan va O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishilgandan keyin yangi imkoniyatlar ochildi.

² Ўша асар 86-87-бетлар.

“Davlat tili haqida”gi Qonunning yangi tahriri 1995 yil 21 dekabrda qabul qilindi va u 24 moddadan iborat¹.

Ko’rinib turganidek, davlat tili haqidagi Qonun o’zbek tili va madaniyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko’tarishi, uning huquqiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy, g’oyaviy asoslarini mustahkamlashni ko’zda tutadi.

O’zbek tiliga davlat maqomi berilganligi boshqa millat va milliy til sohiblarining Konstituiyamizda belgilangan huquqlarini zarracha kamsitmaydi. 13-moddada aytilishicha, “O’zbekiston o’z hududida respublika davlat tilida, shuningdek, rus, qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg’iz, turkman tillarida hamma respublikada zich yashaydigan boshqa millatlarning tillarida umumiy o’rta ma’lumot olishni ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”².

O’zbekistonda tub aholidan tashqari qancha millat va elatlar yashamasin, ular o’zbeklar bilan teng huquqlidir. Bizning ona zaminimizda istiqomat qilib, respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’naviy taraqqiyotiga o’zining munosib hissasini qo’shib kelayotgan o’zga millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an’analari hurmat qilinadi, ularning rivojlanishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. O’zbekiston Respublikasi Konstituiyasining 4-moddasida bu haqda aytilgan.

O’zbekiston davlat mustaqilligining asosiy maqsadlaridan biri shaxsning har tomonlama kamoloti uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berishdir. Bu esa, avvalambor, hozirgi zamon fani, texnikasi va madaniyatining hamma yutuqlarini egallashni taqozo etadi. Bu vazifani hal etishda birgina ona tilini bilishning o’zi kifoya qilmaydi. Dunyodagi boshqa xalqlar va millatlar tillarini ham bilish hozirgi sharoitda shaxs kamoloti, jamiyatimiz taraqqiyotining zurrur omiliga aylanib bormoqda.

Xulosa

Til haqidagi Qonunda O’zbekistonda yashovchi barcha millatlar milliy-madaniy jamiyatlar va markazlar tuzish huquqiga egadirlar, deb yozilgan. O’zaro do’sstlik, birodarlik, milliy hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashda, milliy qadriyatlarimizning umummilliy, umuminsoniy qadriyatlar yutuqlari asosida boyib va takomillashib borishida, Qonunda aytib o’tilgan va belgilab qo’yilgan ana shu qoidaning ahamiyati bebahodir.

Respublikada hozirgi paytda 27 millat vakillari tomonidan tuzilgan 150 ga yaqin milliy madaniy markaz (MMM) faoliyat olib bormoqda.

Respublika baynalminal madaniyat markazi va MMM faollaridan 71 kishi yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. SHu jumladan, 32 kishi “Do’sstlik” ordeni bilan, 2 kishi “Mehnat shuhrati” ordeni bilan, 13 kishi “SHuhrat” medali bilan mukofotlangan. 7 kishiga faxriy unvonlar, 17 kishiga O’zbekiston

¹ Она тили – Давлат тили. – Т.: Адолат, 2004. – 30-37-б.

² Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 4-б.

Respublikasining Faxriy yorliqlari berilgan. Mukofotlangan orasida 24 millat vakillari bor.

Bugungi kunda O'zbekiston Qahramoni Vera Borisovna Pak Xorazm viloyati koreys MMM boshqaruvi a'zosi. Respublika rus markazi raisi Svetlana Ivanovna Gerasimova esa senator, O'zbekiston Xalq o'qituvchisi.

O'zbekistonning ko'pgina viloyatlari, tumanlari, qishloqlarida qozoq va qirg'izlar, tojik va turkmanlar istiqomat qilishadi. Bizning madaniyatlarimiz, urf-odat va an'analarimiz bir chashmadan suv ichadi. Ular bilan bo'lgan azaliy do'stligimizning tarixiy ildizlari bir. Dunyoda o'zbeklar bilan tojik, qirg'iz, qozoqlarni ajratadigan kuch yo'q. "Do'stlik bizlarning hayotimizdir, baxtimizdir, istiqbolimizdir. Biz bir qorindan talashib chiqqan xalqlarning vakillarimiz. Bizning tilimiz bir erda voyaga etgan, qozoq onasining aytgan allasiga o'zbek bolasi uxlagan. O'zbeklar tojiklar bilan bir hovlida yashab kelganlar. Navoiyni turkmanlar xuddi o'zbeklarday yaxshi ko'radilar, qirg'izning to'yi o'zbeksiz o'tmagan. Bizning xalqlarimiz bir-biridan qiz olib, qiz berib quda-anda bo'lib kelganlar. Bizning bobolarimizning qabrlari bir-biriga yaqin qo'yilgan. Bizning cho'ponlarimiz ayni tog'lardan qo'y haydaganlar. O'zbek xalqining buyuk e'tiqodi shu".

Bizning hammamiz bir daryodan suv ichganmiz, tashqi dushmanlarga qarshi birgalikda kurashganmiz, davlat mustaqilligiga deyarli bir vaqtda erishganmiz. Milliy mustaqillik tufoyli hozirgi paytda yagona bir iqtisodiy mintaqada yashab turibmiz. Bularning hammasi iqtisodiy, madaniy, siyosiy taraqqiyotimizga ijobiy ta'sir ko'rsatyapti.

O'zbekiston davlat mustaqilligi o'zbeklar bilan qardosh xalqlar o'rtasidagi qadimiy do'stlikni yanada mustahkamlash va rivojlantirishda yangi tarixiy bosqichdir. Bu masalada o'zbek tilining rivojlanishi va tiklanishiga mustaqillik yo'llarida keng yo'l ochib berilishi davlat tili haqidagi Qonunning tarixiy ahamiyati behad katta o'rin tutadi.

Boshqa tillarni bilish-har bir ma'lumotli kishining ko'rkidir. Bu o'zga millatlar tarixini, ma'naviy boyliklarini, madaniyati va psixologiyasini yanada chuqurroq egallab olish uchun xizmat qiladigan muhim omildir. Til bilgan taqdirdagina millatning ruhini, uning qadr-qimmatini tushunish va baholash mumkin. Kimki boshqa millat va xalqlar tilini bilsa, u shu xalqning dilini ham anglaydi, tushunadi. Xalqlar o'rtasida birlik, ahillik, mehr-oqibat va hurmat til va madaniyatni bilish bilan boshlanadi.

G'afur G'ulomning "Ko'p tilni bilishning xosiyati" maqolasida aytilishicha, "Hayotda bittagina tilni bilgan kishi bittagina bo'lib qolaveradi. Ikki tilni bilgan kishi ikki kishi, uch tilni bilgan kishi uch kishi va hokazo, deyish mumkin...

Ko'p tilni bilish o'zini madaniy kishi deb hisoblashni orzu qiladigan har bir xushfahm yosh kishi uchun farz. Ingilizcha, nemischa, fransuzcha yoki ital'yancha bilish dunyo madaniyati xazinasiga yo'l ochadi. SHu tillarni bilmaslik ilg'or fan, texnikani o'rganishda ancha mushkullik tug'diradi.

SHekspirni, Bayronni, SHillerni, Floberni, Gygoni, Gyoteni, Didroni, Danteni orginalda o'qiy olish. Bu katta fazilat-ku!

Фикримча, yoshlarimizning ko'p til bilishi ularning axloqiga musbat ta'sir ko'rsatadi..."¹.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi paytda yoshlar maktabda va oliy o'quv yurtlarida rus, ingliz, nemis, fransuz, ispan tillari bilan bir qatorda bizga qadimdan madaniyati, dini, tarixi va urf-odatlarini yaqin bo'lgan SHarq xalqlari tillarini ham katta qiziqish bilan o'rganmoqdalar. Arab, fors, hind, xitoy tillarini bilish Eron, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Xitoy singari dunyoning bir necha milliard aholisi yashaydigan mamlakatlar bilan munosabatimizni yaqinlashtirish va yaxshilashga sabab bo'ladi. Ana shu niyatimizga erishsak, aksariyat qismi arab va fors tillarida yozilgan qadimiy qo'lyozmalarimizni bimalol o'qib-o'rganadigan etuk mutaxassislariga ega bo'lamiz.

XXI asr globallashuv jarayonida O'zbekistonning har bir fuqarosi 4 ta sifatga ega bo'lishi kerak: 1) zamonaviy mutaxassis bo'lishi; 2) o'zbek tili, rus tili, ingliz tillarini mukammal bilishi; 3) doim o'z bilim doirasini yangilab borishi va 4) tadbirkor-tashabbuskor bo'lishi lozim².

Jahon fani va madaniyatining bebaho xazinalaridan bahramand bo'lish o'zbek xalqi tili va madaniyatini rivojlantirish, milliy qadriyatlarimizni umuminsoniy qadriyatlar negizida kuchaytirishda beqiyos o'rin tutadi. Bularning hammasi O'zbekiston davlat mustaqilligining iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy asoslari mustahkamlanishida o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Til haqidagi Qonunda O'zbekistonda istiqomat qilayotgan boshqa millat va ellatlar vakillarining davlat tiliga katta hurmat va e'tibor bilan qarashlari, o'zbek tilini o'rganishlari zarurligi masalasi alohida ta'kidlangan.

O'zbekiston ko'p millatli respublikadir. Ana shu tarixiy zamin va elat - O'zbekistonda 137 dan ortiq millat vakillari istiqomat qilishadi. O'zbekiston aholisining tarkibida ruslar, qozon va qrim tatarlari, qozoqlar, tojiklar, qoraqalpoqlar, koreyslar, qirg'izlar, ukrainlar, yahudiylar, turkmanlar, uyg'urlar, ozarbayjonlar va boshqa millat hamda elat vakillari mavjud. SHuni mamnuniyat bilan aytish mumkinki, O'zbekistondagi tatarlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, ozarbayjonlar o'zbek tilini ancha-muncha biladilar, chunki bu tillar bilan o'zbek tili bir o'zakdan taraqalgan qardosh tillardir. Respublikamizda yashovchi uyg'urlar, turklar ham o'zbek tilini biladilar. Tojiklar ham o'zbek tilini biladilar. Hozir O'zbekistonda yashayotgan qardosh xalqlar va millat vakillarining o'zbek xalqi tili, tarixi, madaniyati, an'alarini, jahon civilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk ulushini o'rganishlari uchun qulay imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida endilikda o'zbek tili davlat tili sifatida maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida o'qitilib kelinmoqda. U asosiy o'quv predmetlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda o'zbek tili davlat tili sifatida o'qitilmasa va o'rganilmasa, muassasa va korxona, tashkilot va birlashmalarda, xalq ta'limida, madaniyat va

¹ Фулом Ғ. Адабий-танқидий мақолалар. – Т.: Фан, 1971. – 274-б.

² Абдуллаев М. ва бошқ. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. – Т.: Шарқ, 2006. – 528-б.

sog'liqni saqlash, savdo va maishiy xizmat ko'rsatishda, aloqa, transport va boshqa sohalarda ish shu tilda olib borilmasa, til haqida qonun hurmat qilinmagan bo'ladi. Bunday bo'lishiga hech qachon yo'l qo'yilmaydi.

Televidenie va radioda 10 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, tatar, uyg'ur, ozarbayjon) ko'rsatuv va eshittirishlar olib boriladi.

Gazetalar 10 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, koreys, tojik, turkman, ukrain, ingliz), jurnallar esa 8 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman) chop etiladi.

O'rta va oliy ta'lim 7 tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillarida amalga oshirilmoqda.

Фойдаланилган адабиётлар рo'yxати:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstituciyasi. – T.: O'zbekiston, 2012.
2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – 3-jild. – T.: O'zbekiston, 2000.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – 3-jild. – T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – 1-jild. – T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – 7-jild. – T.: O'zbekiston, 1999.
6. Karimov I.A. Юksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T., O'zbekiston, 2011.
8. Qobulov B. Tuprog'izor Turkiston. "O'zbekiston ovozi" 1993 yil. 9-iiol'.
9. Tulenov J., G'ofurov Z. Mustaqillik va milliy tiklanish. – T.: O'zbekiston, 1996.
10. Boltaboev X. Юrt qayg'usi.//SHarq yolduzi, 1992, 4-son, 181-b.
11. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud ahloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
- 134-b.

12. Abdurauф Фитрат. Hind sayyohining qissasi. //SHarq yolduzi, 1991, 8-son, 14-b.
13. Qo'chqortoev I. Til – millat qalbi//Muloqot, 1991, 10-son, 17-b.
14. Ona tili – Davlat tili. – T.: Adolat, 2004.
15. G'ulom G'. Adabiy-tanqidiy maqolalar. – T.: Фan, 1971.
16. Abdullaev M. va boshq. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: SHarq, 2006.
17. Quronov M. O'zbek xarakteri va milliy g'oya. – T.: Ma'naviyat, 2005. – 96 b.
18. Abdullaev M., Abdullaev Ф. va boshqalar. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: SHarq, 2006. – 528 b.
19. Muhammadiev N. Bag'rikenglik va hamjihatlik// Xalq so'zi, 2009 yil 8 avgust.
20. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. – T.: G'oфur G'ulom nomli adabiyot va san'at nashriyoti, 2010. – 198 b.